

SCIENCEZONE

ONLINE SCIENTIFIC
CONFERENCES

Conference On Legal Science

No.3 (2)

2024

12.00.00 – YURIDIK FANLAR – LAW*Abdihakimov Farhod Zafar o'g'li*INNOVATSION TADBIRKORLIK FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISHNING
FUQAROLIK-HUQUQIY MEXANIZMI.....3*Aliyeva Marjona Obid qizi*

ELEKTRON TIJORATDA SHARTNOMA TUZISHNING UMUMIY TALABLARI 12

*Tilavova Sadaf To'lqin qizi*O'ZBEKISTON VA GERMANIYADA TADBIRKORLAR HUQUQLARINI HIMOYA
QILISH TAMOYILLARI VA ULARNING TADBIRKORLIK QONUNCHILIGIDA
AHAMIYATI 16*Isoqov Ahmadali Komiljon o'g'li*SUDLAR FAOLIYATIGA ELEKTRON ODIL SUDLOV MODELINI TATBIQ ETISH
HOLATI VA ISTIQBOLLARI 19*G'ulomov Shohruh Islomjon o'g'li*METAVERSE PLATFORMALARIDA ISTE'MOLCHILAR HUQUQLARINI HIMOYA
QILISH 27

ELEKTRON TIJORATDA SHARTNOMA TUZISHNING UMUMIY TALABLARI

Aliyeva Marjona Obid qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistri

xavajonallanazarova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirishda shartnomalarni tuzish va ularning huquqiy asoslari tahlil qilingan. Maqolada elektron tijoratda shartnoma tuzishning umumiy talablari, shartnomani tuzish qoidalari, shartnomaning majburiy shartlari, shartnomadagi elektron hujjatlar bilan bog'liq huquqiy masalalar yoritib berilgan. Shuningdek, elektron tijoratni rivojlantirishda O'zbekistonda qabul qilingan huquqiy hujjatlar va ularning ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Maqola O'zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish istiqbollari alohida e'tibor qaratadi va ularni hal qilish yo'llarini taklif etadi.

Kalit so'zlar: elektron tijorat, shartnoma, elektron hujjat, elektron xabar, oferta, aksept, huquqiy tartibga solish.

O'zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirishda, shu jumladan elektron tijoratni rivojlantirishda muayyan natijalarga erishish imkonini berdi. Shunga qaramay, mamlakatda elektron tijoratning to'laqonli bozorini yaratishga, tovarlar, xizmatlar ishlab chiqaruvchi mahalliy korxonalarining tashqi bozorlarga chiqishiga to'siq bo'layotgan qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolmoqda.

Elektron tijoratda tuziladigan shartnoma va uning tuzilishi tartibiga doir talablar deyarli odatiy shartnomalardan farq qilmaydi. Bunday turdagi shartnomalarni tuzish yuqorida aytib o'tilganidek, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi, "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonun va shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-iyundagi "Elektron tijoratda bitimlarni amalga oshirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 185-sonli qarorlari orqali huquqiy jihatdan tartibga solinadi. Xususan, axborot tizimlaridan foydalangan holda tuzilgan shartnoma

yoza shaklda tuzilgan va taraflar tomonidan imzolangan, shu jumladan taraflarning muhrlari bilan tasdiqlangan shartnomaga tenglashtiriladi.

Shuningdek, ushbu qarorda shartnoma tuzish qoidalari atroflicha tahlil qilingan bo'lib, qoidalarining 24-bandiga ko'ra, shartnoma oferta va akseptdan iborat bo'ladi. Shartnoma, agar shartnomada o'zgacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa, oferta yuborgan taraf tomonidan boshqa taraf yuborgan aksept olingan paytdan boshlab tuzilgan deb e'tirof etiladi. Oferta o'zida elektron hujjatni ifodalaydi, uning vositasida elektron tijorat ishtirokchisi bitta shaxsga, bir nechta aniq shaxslarga va shaxslarning nomuayyan doirasiga shartnoma tuzishni taklif etadi va ularning shartnoma shartlari mavjud bo'lgan, shu jumladan, ushbu Qoidalarga muvofiq majburiy shartnoma shartlari mavjud bo'lgan matndan foydalanilishini ta'minlaydi. Elektron tijorat ishtirokchisidan chiquvchi ofertada shartnomaga kiritilishi kerak bo'lgan barcha shartlar yoxud bunday shartlar mavjud bo'lgan elektron hujjatlar yoki elektron xabarlarga havolalar bo'lishi kerak^[1].

Shartnoma uning elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanishini nazarda tutuvchi elektron hujjat tarzida, matnida elektron tijorat ishtirokchisining roziligi bildirilgan matn bo'lgan elektron xabar tarzida, ofertada ko'rsatilgan shartlarni bajarish bo'yicha harakatlarni sodir etish orqali akseptni amalga oshirish yo'li bilan tuzilishi mumkin. Aksept o'zida elektron hujjatni yoki elektron xabarni, shuningdek ofertadagi mavjud shartlarni bajarish bo'yicha harakatlarni ifodalaydi, uning orqali shaxs ofertada taklif etilgan shartlarda shartnoma tuzishga to'liq va so'zsiz rozilikni ifodalaydi. Akseptda oferent tomonidan taklif etilgan shartnomaning barcha shartlari o'zgartirilmasligi kerak. Oferentga shartnomaning o'zgartirilgan shartlari bilan javob yuborilgan taqdirda, bunday javob aksept hisoblanmaydi va yangi oferta hisoblanadi.

Qoidalarining 37-bandiga ko'ra, shartnomada quyidagi majburiy shartlar, ya'ni: shartnoma predmeti; taraflarning asosiy huquqlari va majburiyatlari; tovarlarning, ishlar, xizmatlarning narxi va tavsifi hamda taraflar o'rtasida hisob-kitob qilish tartibi, kafolat muddati, agar bu aniq bir tovar uchun belgilangan bo'lsa, yetkazib berish joyi va shartlari, yetkazib berish xizmatlari mavjud bo'lganda, taraflarning javobgarligi, majburiyatlarni bajarish tartibi va muddatlari, shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish imkoniyati va tartibi, bitimni rad etish shartlari, tovar va pul mablag'larini qaytarish shartlari va tartibi, shartnoma tuzilgan til to'g'risidagi ma'lumot, elektron hujjatga va elektron

xabarga havola qilish vositasida shartnomaga kiritiladigan shartlar va tegishli havoladan foydalanish tartibi (ular mavjud bo'lganda), shartnomaning amal qilishini to'xtatish shartlari; nizolarni hal etish tartibi; taraflarning joylashgan joyi (pochta manzili), elektron manzili va bank rekvizitlari, taraflar tomonidan kelishilgan boshqa shartlar bo'lishi kerak^[2].

Shartnoma unga hamma foydalanishi mumkin bo'lgan axborot resursida joylashtirilgan elektron hujjatga havola qilish yo'li bilan kiritiladigan alohida shartlarni o'z ichiga olishi mumkin. Bu holda elektron hujjatni joylashtirgan elektron tijorat ishtirokchisi qonun hujjatlarida yoki shartnomada belgilangan muddat mobaynida undan erkin foydalanish imkoniyatini ta'minlashi, bu muddat o'tganidan keyin esa mazkur elektron hujjatning qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda saqlanishini ta'minlashi shart. Shartnomaga kiritiladigan o'zgartirishlar shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan elektron hujjat va (yoki) elektron xabar sifatida rasmiylashtiriladi.

Shartnomaga ilova sifatida tovarlarni, ishlar va xizmatlarni jismoniy shaxslarga, shuningdek chakana savdo bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslarga elektron tijorat shaklida ulgurji va mayda turkumlar bilan sotishda xaridor (buyurtmachi) joylashgan joy bo'yicha davlat soliq xizmati organining turg'un savdo shoxobchasi mavjudligi va nazorat-kassa mashinasi ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi ma'lumotnomasi talab qilinmaydi.

Shartnomani tuzishda ERIlar kalitlarini ro'yxatdan o'tkazishning bir yoki bir nechta markazlari tomonidan berilgan ERI kalitlari qo'llanilishi mumkin. Elektron hujjatlarni, elektron xabarlarni va elektron tijoratda tuziladigan shartnomalar bilan bog'liq boshqa ma'lumotlarni saqlash O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirilishi kerak. Elektron tijorat ishtirokchilari va axborot vositachilari, agar qonun hujjatlarida o'zgacha hol belgilanmagan bo'lsa, ushbu Nizomga muvofiq elektron tijoratni amalga oshirish davomida shakllantiriladigan elektron hujjatlar va elektron xabarlarni saqlash tartibiga rioya etishlari shart.

Agar tuzilgan shartnomada hamma foydalanadigan axborot resursida joylashtirilgan elektron hujjatga havola qilish yo'li bilan unga kiritilgan alohida shartlar mavjud bo'lsa, elektron hujjatni joylashtirgan elektron tijorat ishtirokchisi qonun hujjatlarida yoki shartnomada belgilangan muddat mobaynida unga erkin kirish imkoniyatini, bunday muddat tamom bo'lgach esa — ushbu elektron hujjatni ushbu Nizomga muvofiq saqlashni ta'minlashi shart.

Sotuvchi axborot vositachisi bilan axborot vositachisiga elektron tijoratni amalga oshirish davomida shakllantiriladigan elektron hujjatlar va elektron xabarlarini saqlash huquqini beradigan ikki tomonlama shartnoma tuzish huquqiga ega.

Elektron tijoratdagi elektron hujjatlar, shuningdek elektron shaklda qayd etilgan, o'z yuboruvchisini identifikatsiya qilish imkonini beradigan axborot (bundan buyon matnda elektron xabarlar deb yuritiladi) qog'ozda rasmiylashtirilgan va o'z qo'li bilan imzolangan hujjatlarga tenglashtiriladi hamda ulardan shartnoma tuzilganligining dalili sifatida foydalanilishi mumkin. Shartnoma faqat axborot tizimlaridan foydalanilgan holda tuzilganligiga asoslanib, haqiqiy emas deb topilishi mumkin emas. Elektron tijorat ishtirokchisining ofertani qabul qilganligi to'g'risidagi javobi (aksept) elektron hujjat yoki elektron xabar tarzida yoxud ofertadagi shartlarni bajarish bo'yicha harakatlarni bajarish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda, O'zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish imkoniyatlari yildan-yilga o'sib borayotganligini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Uning rivojlanishi milliy ishlab chiqaruvchilarga yangi bozorlar ochish, yangi mijozlar topish imkoniyatlarini yaratadi. Elektron tijoratni rivojlantirish bo'yicha tanlangan va amaldagi yo'ldan to'g'ri borish, kelajakda O'zbekiston iqtisodiyotini jahon bozorining yetakchi vakillaridan biriga aylantiradi. O'zbekistonda elektron tijorat bo'yicha mavjud muammolarni hal qilishning to'g'ri yo'li tanlanganligi xalq farovonligida, jamiyatimizning taraqqiy topishida, iqtisodiy rivojlanishida o'z aksini topadi.

REFERENCE

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 maydagi "Elektron tijoratni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3724-sonli qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.05.2018 y., 07/18/3724/1261-son, 31.10.2018 y., 06/18/5564/2137-son, 09.11.2019 y., 06/19/5870/4010-son; 28.09.2020 y., 06/20/6075/1330-son.
2. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-sentabrda qabul qilingan "Elektron tijorat to'g'risida"gi 792-son Qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.09.2022-y., 03/22/792/0870-son.
3. Ro'zinazarov.Sh, Askarov.J, Tursunov.A Elektron tijoratni huquqiy tartibga solish. Mas'ul muharrir: y.f.d., prof. Sh.N.Ro'zinazarov. – T., TDYU, 2021.